

Date: 23rd October-2025

**TALABALARDA TA'LIM JARAYONIGA TA'SIR ETUVCHI TURLI SALBIY
OMILLAR**

M.I.Ilxomova

Bugungi kunda ta'lim jarayonining samaradorligi nafaqat o'quv dasturi yoki o'qituvchining malakasiga bog'liq, balki talabalarning shaxsiy holati, ularni o'rab turgan ijtimoiy-madaniy muhit, iqtisodiy sharoitlar va boshqa ko'plab omillar bilan chambarchas bog'liq. Har bir talaba o'zining individual xususiyatlariga, hissiy rivojlanish darajasiga va hissiy barqarorlikning mavjudligi yoki yo'qligiga qarab, ta'lim jarayonida stressli vaziyatlarni turlicha boshdan kechiradi. Biroq har bir talabaga turli darajada ta'sir ko'rsatadigan va hissiy taranglik, salbiy his-tuyg'ular va hatto depressiyaga olib keladigan bir qator omillar mavjud.

1. Ichki (shaxsiy) salbiy omillar:

a) Motivatsiyaning pastligi; Ko'plab talabalar o'qishning mohiyatini anglab yetmagan, ularda ichki motivatsiya yo'q. Faqat imtihon yoki stipendiya olish uchun o'qish o'rganishga bo'lgan haqiqiy qiziqishni pasaytiradi. Bu esa bilim sifatining pastligiga olib keladi.

b) Psixologik va jismoniy muammolar; Stress, depressiya, charchoq kabi psixologik muammolar talabaning o'qishga e'tiborini pasaytiradi. Shuningdek, sog'liq muammolari ham o'quv faoliyatini izdan chiqaradi.

c) Vaqtni noto'g'ri boshqarish; Ko'plab talabalar o'z vaqtini rejalashtira olmaydi. Vaqtni ijtimoiy tarmoqlarga, o'yinlarga sarflab, darslarga kam e'tibor qaratiladi. Bu esa darslarni o'zlashtirish darajasini pasaytiradi.

d) O'ziga ishonchsizlik; Ba'zi talabalar o'z bilimiga ishonmaydi, "men bunday darajaga chiqolmayman" degan fikr bilan o'zini chetga tortadi. Bu esa faollik va tashabbuskorlikni pasaytiradi.

2. Tashqi (atrof-muhit) salbiy omillar;

a) Ta'lim muassasasining yetarli sharoitga ega emasligi
Kutubxona, laboratoriya, kompyuter xonasi, internet tarmog'i yoki zamonaviy texnologiyalarning yo'qligi talabalarning sifatli ta'lim olish imkoniyatini cheklaydi.

b) O'qituvchi omili; O'qituvchining dars o'tishdagi sustligi, talabalarga befarqligi, noobjektiv baholash kabi omillar talabaning rag'batini pasaytiradi.

c) Moddiy qiyinchiliklar; Ko'plab talabalar o'qishdan tashqari ishlashga majbur. Bu holat ularning darslarga vaqt ajratishiga va sifatli o'rganishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

d) Oila va ijtimoiy muhit ta'siri; Oilaviy muammolar, ruhiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi yoki atrofdagi salbiy do'stlar ta'siri talabaning ta'limga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi.

3. Ta'lim tizimidagi muammolar

O'quv dasturlarining hayotdan uzoqligi – nazariyaga haddan tashqari urg'u berilishi amaliy bilimni cheklaydi.



Date: 23rd October-2025

Baholash tizimidagi adolatsizlik – bilim emas, tanish-bilish orqali baho olish holatlari talabaning motivatsiyasini yo‘qotadi.

Onlayn ta'lim talabalar uchun moslashuvchanlik va qulaylikni ta'minlaydi, ammo u texnostress kabi turli xil qiyinchiliklarni ham o'z ichiga oladi. Texnostress-bu texnologiyadan foydalanish tufayli odamlar boshdan kechiradigan psixologik noqulaylik yoki stress, ayniqsa ular o'z talablarini bajara olmasalar. Talabalarning texnostress darajasi ularning onlayn ta'lim tajribasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'qituvchi va uning talabalar o'rtasidagi ikki tomonlama aloqa talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar talabalar olishi mumkin bo'lgan qo'llab-quvvatlashning bir qismidir. Talabalarda qo'llab quvvatlashning yetishmasligi ualrda o'quv jarayoni uchun turli salbiy munosabatlarni paydo qilishi mumkin.

Talabalarning ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishi ko'plab omillarga bog'liq. Salbiy omillar esa bu yo'ldagi asosiy to'siqlardir. Ularni bartaraf etish uchun nafaqat talabalar, balki o'qituvchilar, ota-onalar va ta'lim tizimi vakillari ham birgalikda harakat qilishi zarur. Ichki va tashqi to'siqlarni bartaraf etish orqali talabalarga yanada sifatli ta'lim olish imkonini yaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pedagogika va psixologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2022.
2. Колесникова, В. Н. Эмоциональный фактор в структуре личности и учебной деятельности студентов
3. Internet manbalari: www.edu.uz, www.ziyounet.uz

